



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

ISTE'MOLCHI TUSHUNCHASI VA UNING BELGILARI

Shodiyeva Irida Soatmurod qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

E-mail: shodiyevairisa@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada iste'molchi tushunchasi, uning belgilari, iste'mol munosabatlarining subyektlari, kvazi-iste'molchi tushunchasi hamda iste'molchi maqomini belgilash xususiyatlari keng yoritilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xalqaro tajribadagi iste'molchi huquqlarini himoya qilish tizimi tahlil qilingan. Shuningdek, onlayn savdo sharoitida iste'molchi maqomi va uni huquqiy jihatdan himoya qilishning zamonaviy yo'nalishlar ko'rib chiqiladi.

Kirish so'zlar: iste'molchi, maqom, iste'molchi huquqlari, iqtisodiyot, kvazi-iste'molchi, iste'molchi huquqlarini himoya qilish

ПОНЯТИЕ «ПОТРЕБИТЕЛЬ» И ЕГО ПРИЗНАКИ

Шодиева Ириса Соатмурод кизи

Студентка Ташкентского государственного

юридического университета

E-mail: shodiyevairisa@gmail.com

Аннотация: В данной статье широко рассматриваются понятие потребителя, его признаки, субъекты потребительских отношений, понятие квазипотребителя и особенности определения статуса потребителя. В исследовании анализируются законодательство Республики Узбекистан, международный опыт, в том числе система защиты прав потребителей в странах Южно-Африканской Республики и Европейского Союза. Также анализируются статус потребителя и современные направления его правовой защиты в сфере интернет-торговли.

Ключевые слова: потребитель, статус, права потребителей, экономика, квази-потребитель, защита прав потребителей

CONCEPT OF CONSUMER AND ITS CHARACTERISTICS

Shodiyeva Irida Soatmurod qizi

Student of Tashkent State University of Law

E-mail: shodiyevairisa@gmail.com

Annotation: This article broadly covers the concept of a consumer, its characteristics, subjects of consumer relations, the concept of a quasi-consumer and the features of determining the status of a consumer. The study analyzes the legislation of the Republic





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

of Uzbekistan, international experience, including the system of consumer rights protection in the countries of the Republic of South Africa and the European Union. It also analyzes the status of a consumer and modern directions of its legal protection in online trading.

Keywords: *consumer, status, consumer rights, economy, quasi-consumer, protection of consumer rights*

Kirish

Iste'molchi jamiyatning iqtisodiy tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Uning huquqlari, manfaatlari va maqomini himoya qilish darajasi har bir davlatning fuqarolik jamiyatiga xos belgilaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng iqtisodiyotning bozor mexanizmlarini joriy etish bilan birga iste'molchi huquqlarini himoya qilishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgiladi. Bu jarayonda 1996-yilda qabul qilingan "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki aynan mazkur hujjat iste'molchi tushunchasi, uning huquqlari, majburiyatlari va himoya mexanizmlarini aniqlab berdi.⁶ Ammo raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi esa ushbu sohada yangi huquqiy munosabatlarni keltirib chiqardi. Onlayn savdo, raqamli xizmatlar, elektron to'lov tizimlari keng qo'llanila boshlagani sababli, iste'molchi maqomini aniqlash va uni himoya qilish mexanizmlari yanada murakkablashdi. Shu bois, zamonaviy davrda iste'molchi maqomini aniqlash nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy va ijtimoiy masalaga ham aylandi⁷.

Metodlar

Tadqiqotda bir nechta ilmiy uslublardan foydalaniladi. Avvalo, sifatli huquqiy tahlil orqali iste'molchi maqomi haqidagi milliy va xalqaro qonun hujjatlari o'rganiladi. Komparativ metod yordamida O'zbekiston qonunchiligi va boshqa davlatlar qonunchiligi solishtiriladi. Empirik tahlil asosida esa onlayn savdo sharoitida iste'molchi huquqlarining buzilishi bilan bog'liq amaliy holatlar ko'rib chiqiladi. Metodologik asos sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun, BMTning iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tamoyillari, shuningdek, turli tadqiqot ishlaridan foydalaniladi.

Muhokama va natijalar

"Iste'molchi" tushunchasi turli huquqiy tizimlarda turlicha talqin etiladi. O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida iste'molchi "mahsulotni o'zining shaxsiy, oilaviy, uy-ro'zg'or yoki boshqa shunga

⁶ Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga sharh. – T.: O'zbekiston, 2005. <https://istemolchi-info.uz/archives/6525>

⁷ Sopoyev, R. Onlayn savdoda iste'molchilar huquq va manfaatlarini himoya qilishning ahamiyati va zarurati. Obshchestvenniye nauki v sovremennom mire, 4(10), 28–32, 2025. <https://mlibrary.uz/index.php/zdif/article/view/85436>





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

o'xshash ehtiyojlari uchun sotib oluvchi yoki foydalanayotgan fuqarolar" sifatida belgilanadi. Ushbu ta'rifning asosiy mazmuni iste'molchi tovar yoki xizmatdan tijorat maqsadida emas, balki shaxsiy ehtiyoj uchun foydalanishini anglatadi⁸. Biroq iste'molchi tushunchasining xalqaro talqinlariga qaralsa, yanada kengroq tushuniladi. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1985-yilda qabul qilingan "Iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish bo'yicha asosiy tamoyillar"ida iste'molchi ishlab chiqarish jarayonining yakuniy bo'g'inida turgan, mahsulot yoki xizmatni iste'mol qiluvchi shaxs sifatida ko'rsatiladi. Janubiy Afrika Respublikasining 2008-yilgi "Consumer Protection Act 68 of 2008" qonunida esa iste'molchi nafaqat jismoniy shaxs, balki yuridik shaxs ham bo'lishi mumkinligi e'tirof etilgan⁹.

Undan tashqari, iste'molchi maqomini aniqlashda uchta asosiy yondashuv mavjud: huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy. Huquqiy yondashuvda "iste'molchi" huquqiy munosabatlarning mustaqil ishtirokchisi bo'lib, unga qonun asosida maxsus himoya kafolatlanadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, "iste'molchi" bozor muvozanatini ta'minlovchi asosiy talab yaratuvchi subyektdir. Ijtimoiy jihatdan esa "iste'molchi" jamiyat farovonligi va ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshirish vositasi sifatida qaraladi¹⁰.

Iste'molchi maqomini aniqlovchi asosiy belgilarga qaralsa, ba'zi adabiyotlarda bular qatoriga quyidagilar kiradi:

- iste'molchi o'z xohishiga ko'ra tanlov qiladi,
- u shaxsiy ehtiyojlari uchun tovar yoki xizmatni sotib oladi;
- u himoya huquqiga ega.

Zero, iste'molchi faoliyati bozor iqtisodiyotida talabni shakllantiruvchi asosiy omildir, shuning uchun ham uning huquqlari maxsus qonunlar bilan himoyalanganadi¹¹. Boshqa bir tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iste'molchi maqomi uch asosiy omil bilan belgilanadi:


- birinchidan, u bozor munosabatlarining subyekti sifatida mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxsdir;
- ikkinchidan, iste'molchi iqtisodiy jihatdan zaif tomon hisoblanadi, shu sababli davlat tomonidan himoyaga muhtoj;
- uchinchidan, iste'molchi o'z manfaatlarini huquqiy mexanizmlar orqali amalga oshirish imkoniyatiga ega¹².

⁸ Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga sharh. – T.: O'zbekiston, 2005. <https://istemolchi-info.uz/archives/6525>

⁹ Jacobs W., Stoop P. N., Van Niekerk R. Fundamental consumer rights under the Consumer Protection Act 68 of 2008. Potchefstroom Electronic Law Journal, 2010. <https://journals.assaf.org.za/per/article/view/2692>

¹⁰ Rahmonov, T. Iste'molchi va uning iqtisodiy roli: nazariy va amaliy jihatlar. – T.: Fan va Texnologiya, 2022. <https://www.researchgate.net/publication/351982356>

¹¹ Mualliflar jamoasi. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlar, rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ularni O'zbekiston qonunchiligida qo'llash masalalari. Monografiya. – T.: TDYUU, 2014. <https://www.tdyuu.uz/?p=1234>





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Shuning uchun ham Twigg-Flesner (2003) fikriga ko'ra, iste'molchi huquqlari uch toifaga ajratiladi: asosiy (fundamental) huquqlar, iqtisodiy huquqlar va himoya huquqlari. Asosiy huquqlarga mahsulot sifati, xavfsizligi va ma'lumot olish huquqi kiradi. Iqtisodiy huquqlar esa to'lov, qaytarish va kafolat munosabatlariga taalluqlidir. Himoya huquqlari esa iste'molchining davlat yoki sud organlari orqali o'z manfaatlarini himoya qilish imkoniyatini bildiradi¹³.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, huquqiy adabiyotlarda asosiy iste'molchi bilan birgalikda kvazi-iste'molchi tushunchasi ham alohida o'rin tutadi. Kvazi-iste'molchi – bu mahsulotni yoki xizmatni shaxsiy maqsadlarda emas, balki korporativ yoki professional maqsadlarda sotib oluvchi shaxsdir. Bunday shaxslar, odatda, iste'molchi sifatida to'liq himoyaga ega emaslar, biroq ular ayrim hollarda iste'molchi huquqlaridan foydalanish huquqiga ega bo'lishi mumkin¹⁴. Masalan, bir advokatlik firmasi o'z faoliyati uchun printer sotib olsa, bu holatda firma kvazi-iste'molchi hisoblanadi. Chunki printer korxonaning tijorat faoliyatini amalga oshirish vositasidir. Shu bilan birga, mahsulot sifatsiz bo'lsa, firma ayrim holatlarda iste'molchi himoyasiga oid qonunlarga tayanishi mumkin¹⁵.

O'zbekistonda esa iste'molchi maqomini aniqlashda quyidagi omillar muhim:

2. huquqiy mustaqillik;
3. tovarni shaxsiy ehtiyoj uchun olish maqsadi;
4. shartnoma erkinligi va davlat kafolatlari mavjudligi.

Shuningdek, iste'molchi maqomini belgilashda uning huquqiy holati – jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lishi ham ahamiyatga ega. Bu jihatdan O'zbekiston qonunchiligida ayrim tafovutlar mavjud. Masalan, yuridik shaxs bo'lgan tashkilotlar ayrim hollarda iste'molchi sifatida e'tirof etilmaydi, bu esa ularning huquqiy himoya darajasini cheklaydi¹⁶.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iste'molchi tushunchasi va uning belgilari milliy va xalqaro huquq tizimlarida o'ziga xos tarzda talqin etiladi. O'zbekiston Respublikasida iste'molchi maqomi to'liq huquqiy asosda belgilangan bo'lsa-da, raqamli iqtisodiyot


¹² Adilbayev, Sh. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning zamonaviy muammolari. – T.: Ilm-fan, 2023. <https://www.uzscience.uz/article/view/5281>

¹³ Twigg-Flesner, Christian. Consumer Product Guarantees. Gower Publishing, 2003. <https://www.routledge.com/Consumer-Product-Guarantees/Twigg-Flesner/p/book/9781138277458>

¹⁴ Jacobs W., Stoop P. N., Van Niekerk R. Fundamental consumer rights under the Consumer Protection Act 68 of 2008. Potchefstroom Electronic Law Journal, 2010. <https://journals.assaf.org.za/per/article/view/2692>

¹⁵ Twigg-Flesner, Christian. Consumer Product Guarantees. Gower Publishing, 2003. <https://www.routledge.com/Consumer-Product-Guarantees/Twigg-Flesner/p/book/9781138277458>

¹⁶ Adilbayev, Sh. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning zamonaviy muammolari. – T.: Ilm-fan, 2023. <https://www.uzscience.uz/article/view/5281>





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

sharoitida mazkur institutni yanada takomillashtirish zarur. Xususan, onlayn savdo, kvazi-iste'molchi va elektron shartnomalar kontekstida iste'molchi himoyasini kuchaytiruvchi yangi normalar ishlab chiqilishi lozim. Kelgusida iste'molchi maqomini mustahkamlash uchun xalqaro tajribalarni, jahon mamlakatlarining amaliyotlarini o'rganish hamda ularni milliy qonunchilikka moslashtirish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, iste'molchi va kvazi-iste'molchi o'rtasidagi huquqiy farqlarni aniqlovchi, sud amaliyotida ularni qo'llash mexanizmlarini yaratish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga sharh. – T.: O'zbekiston, 2005. <https://istemolchi-info.uz/archives/6525>
2. Mualliflar jamoasi. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlar, rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ularni O'zbekiston qonunchiligida qo'llash masalalari. Monografiya. – T.: TDYUU, 2014. <https://www.tdyuu.uz/?p=1234>
3. Jacobs W., Stoop P. N., Van Niekerk R. Fundamental consumer rights under the Consumer Protection Act 68 of 2008. Potchefstroom Electronic Law Journal, 2010. <https://journals.assaf.org.za/per/article/view/2692>
4. Babayev D.I. Internet tarmog'ida iste'molchi bilan shartnoma tuzish va uning bajarilishini ta'minlash. Oriental Renaissance Journal, 3(2), 2023. <https://cyberleninka.ru/article/n/internet-or-ali-shartnoma-tuzilganda-istemolchilar-u-u-lari>
5. Twigg-Flesner, Christian. Consumer Product Guarantees. Gower Publishing, 2003. <https://www.routledge.com/Consumer-Product-Guarantees/Twigg-Flesner/p/book/9781138277458>
6. Sopoyev, R. Onlayn savdoda iste'molchilar huquq va manfaatlarini himoya qilishning ahamiyati va zarurati. Obshchestvenniye nauki v sovremennom mire, 4(10), 28–32, 2025. <https://inlibrary.uz/index.php/zdif/article/view/85436>
7. Adilbayev, Sh. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning zamonaviy muammolari. – T.: Ilm-fan, 2023. <https://www.uzscience.uz/article/view/5281>
8. Rahmonov, T. Iste'molchi va uning iqtisodiy roli: nazariy va amaliy jihatlar. – T.: Fan va Texnologiya, 2022. <https://www.researchgate.net/publication/351982356>

